



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
"LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI"
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2021-yil 29 oktyabr № 14/04-00/1-29400084, Toshkent, Amir Temur shoh ko'chasi, 107-B

Toshkent viloyati
Oqqo'rg'on tumani
Davlat soliq inspeksiyasi

**Texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari
qismida takroriy o'tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo'yicha
EKSPERT XULOSASI**

Loyiha nomi	Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Oxunboboyev ko'chasidagi DSI binosini mukammal ta'mirlash.
Buyurtmachi arizasining raqami va sanasi	2021yil 28 oktyabrdagi 2-sonli ariza.
Buyurtmachi	Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Davlat soliq inspeksiyasi.
Loyihani amalga oshirish uchun asos	Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining 2021 yil 19 oktyabrdagi 105-sonli buyrug'i.
Moliyalashtirish manbai	Davlat byudjet mablag'lari hisobidan.
Loyiha hujjatlari bo'yicha ekspert xulosasi	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Jizzax viloyati filialining 2021 yil 8 oktyabrdagi 21287-sonli yig'ma ekspert xulosasi.
Obyektning chegaraviy narxi	1 952 135 988 so'm QQS bilan, 1 697 509 564 so'm QQSsiz.

**Ekspertiza o‘tkazish
uchun asos**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 yanvardagi PQ-3464-sonli va 2018 yil 20 fevraldagi PQ-3550-sonli qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi) “Toshkent viloyati Oqqa‘rg‘on tumani Oxunboboyev ko‘chasi dagi DSI binosini mukammal ta’mirlash” obyekti bo‘yicha texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari qismida takroriy o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha e’tirozlar mavjud emasligi va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma’lum qiladi.

O‘z navbatida, buyurtmachi davlat xaridlarini maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy veb-saytlarda tender (tanlov) o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish orqali qurilish pudrat tashkilotlarini keng jalb etilishini ta’minalashi kerak.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

O‘z navbatida buyurtmachi haqqoniylig, ratsionallik, iqtisod tamoyillariga rioya qilish, moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minalashga javobgardir.


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagagi 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital

qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risidagi Nizom”ning 95-bandiga muvofiq Monitoring buyurtmachi va pudratchi tomonidan tomonlarning tanlov savdolari shartlarini bajarishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi”ga har oyda taqdim etiladigan axborotlarni tahlil qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, buyurtmachi hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasiga qadar har oyda markazning qurilish@expertcenter.uz elektron pochtasiga tomonlar tender savdolarining shartlarini bajarish to‘g‘risidagi ma’lumotni ilovadagi namunaga muvofiq yuboradi.

Ilova: 1-varaqda "Tomonlar tender savdolarining shartlarini bajarish to‘g‘risida ma’lumot" taqdim etish namunasi.

X. Xashimov



B. Xusanov



G. Shodiyev

L. Do‘suhamedov

B. Karimov

